

## O‘TKIR PANKREATIT KASALLIGIDA $\alpha$ -AMILAZA FAOLLIGIGA

Qayumov H.Y., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti  
Tojiev S.R., Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti  
Kalit so‘zlar. nutriyentlar, assimilyatsiya, retro-peritoneum, oshqozon osti bezi.

So‘nggi yillarda jahonning rivojlangan ilmiy markazlarida pankreatitni fiziologik va molekulyar mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga pankreatitning nutriyentlar assimilyatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan disfunktsiyasini ekologik zararsiz usullar bilan profilaktika qilish va korreksiyalashning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘tkir pankreatitning oldindan aytib bo‘lmaydigan belgilari va retro-peritoneumdagiga nisbatan yashirin anatomik tuzilmalarning buzilishi tufayli, inson oshqozon osti bezi bo‘yicha tadqiqotlar qiyinligicha qolmoqda. Natijada, so‘nggi 100 yil davomida ushbu kasallikning patogenezini bo‘yicha tadqiqotlar asosan hayvonlar modellariga tayangan holatda olib borilmoqda [1].

Odam va sutemizuvchilarda ingichka ichak bo‘shliq gidrolizida ishtirok etuvchi asosiy amilazaning turi bu  $\alpha$ -amilazadir. Aniqlanganki, organizmda pankreatik fermentlar, jumladan  $\alpha$ -amilaza gomeostazini ushlab turuvchi tizim mavjud. [2]. Ingichka ichak bo‘shlig‘ida uglevodlarning boshlang‘ich va oraliq gidroliz bosqichlarida ishtirok etuvchi  $\alpha$ -amilaza boshqa pankreatik fermentlar singari glikokaliks sathida adsorbsiyalangan holatda bo‘ladi. Glikokaliks sathida adsorbsiyalangan fermentlar, jumladan  $\alpha$ -amilaza, polisaxaridlarning boshlang‘ich gidrolizida ishtirok etishidan tashqari, bakteriya, virus, patogen makromolekulalarni parchalab, ularning struktura butunligini izdan chiqarib, baryer funksiyasini ham o‘taydi [3].

Tajribalarda massasi  $180 \pm 20$  g erkak jinsli kalamushlardan foydalanildi. O‘tkir pankreatit chaqirish uchun 500 mg/100 g/12 soat tana massasiga nisbatan fiziologik eritmada tayyorlangan L-arginin eritmasi ikki marta qorin bo‘shlig‘iga ineksiya qilindi [4]. O‘tkir pankreatit chaqirilgan kalamushlarda qon zardobida  $\alpha$ -amilazaning faolligi 3,7 barobar oshdi lekin kasallik chaqirishdan oldin profilaktik ravishda rutin, digidrokversetin, pulikaron va tamiflazid flavonoidlari intragastral berilganda qonda hazm fermentlari kasallangan hayvonlardagi ko‘rsatkichlarga nisbatan 70,98%; 71,67%; 44,72% va 55,95% ga mos ravishda kamaydi, lekin ferment faolligining kamayishi fiziologik eritma yuborilgan kalamushlarda kuzatiladigan kattaliklar darajasigacha etib bormadi. Pankreatit chaqirilgan hayvonlarda siydikdagi  $\alpha$ -va tamiflazid yuborilganda 59,93% ga o‘tkir pankreatitdagi ko‘rsatkichlarga nisbatan kamaydi.

Demak kasallikni chaqirishdan oldin flavonoidlarning 5 kun davomida yuborilishi qonda amilaza fermentning faolligini oshirishiga, ya‘ni pankreatitning yuborilishiga to‘sqinlik qiladi. Mazkur o‘zgarish o‘tkir pankreatitda me‘da osti bezida flavonoidlarning profilaktik ta‘siri tufayli atsinar hujayralarning disfunktsiyasi kamayishidan dalolat beradi. Rutin va digidrokversetinlarning pankreatitda kuzatiladigan me‘da osti bezi inkretsia jarayoniga pulikaron va tamiflazid nisbatan antipankreatik ta‘siri samaraliroq

### Foydalanilgan dabiyotlar

1. Hey-Hadavia J., Velisettyb P., and Mhatre S. Trends and recent developments in pharmacotherapy of acute pancreatitis // Postgraduate Medicine. – 2023. –V.135, № 4. – P.334-344.

2. Коротко Г.Ф. Транспортный компонент секреторной деятельности поджелудочной железы // ЭКГ. 2013. – Т.4. – С.51-55.
3. Уголев А.М., Иезуитова Н.Н., Тимофеева Н.М. Энзиматический барьер тонкой кишки // Физиол. Журн. – 1992. – Т.78, № 8. – С.1–20.
4. Jin J.H., Sik H.L.Experimental models of pancreatitis // Clin. Endosc. – 2014. – V.47, № 3. – P.212–216.
5. BG Boymuratovna, KS Kurbanovich, RY Shokirovich -[Supplying of Certain Vitamins for Pregnant Women in the Southern Regions of the Republic of Uzbekistan](#). Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021. 7609–7615.
6. BG Boymuratovna, B Shokhsanam, P KamolaPROBLEMS OF RATIONALIZATION OF NUTRITION OF PREGNANT WOMENNOVATEUR PUBLICATIONS INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY [IJIERT] ISSN: 2394-3696 Website: ijiert.org VOLUME 8, ISSUE 4, Apr.-2021.
- 7.